


IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)


2022-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **56,6 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida **4308** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida 1452 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 903 ta, sanoat tarmog'ida 853 ta, qurilish tarmog'ida 220 ta, tashish va saqlashda 165 ta, yashash va ovqatlanishda 162 ta tashkil etilgan.

Korxonalar soni kesimida



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 56,6 foizi (2021 yil yanvar-dekabrida 56,3 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 3744,6 mlrd. so'mni (21,0 foiz faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3600 tani tashkil etdi);



13502,6 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 94,0 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3759 tani tashkil etdi;



2766,4 mlrd.so'mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 27,4 foizi) 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 103,7 foizni tashkil etdi;



4763,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 90,0 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2491 tani tashkil etdi);



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 0,9 foizga (respublika jami avtomobil' transporti yuk aylanmasining 89,7 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 3,5 foizga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 96,7 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 990 tani tashkil etdi);



- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 92,9 foizi yoki 10038,3 mlrd. so'm, xizmatlar umumiyligi hajmining mos ravishda 49,9 foizi yoki 5204,2 mlrd. so'mni, tashkil qildi. faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 7425 ta




68,9 mln. AQSh dollarari (umumiyligi eksport hajmining 18,9 foizi) 109,8 mln. AQSh dollarari (umumiyligi import hajmining 44,5 foizi) (hisobot davrida 137 ta kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport hamda 329 tasi tomonidan import operatsiyalari amalga oshirildi).



Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati


**2022 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti
(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m	kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida
--	---

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	13502,6	94,0
Sanoat	3744,6	21,0
Qurilish	4763,5	90,0
Chakana savdo	10038,3	92,9
Yuk tashish, mln tn.	30,7	91,3
Yo‘lovchi tashish, mln. kishi	131,9	94,1
Eksport, mln. AQSh doll.	68,9	18,9
Import, mln. AQSh doll.	109,8	44,5

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti
(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik
tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)**




2022 yil yanvar-dekabrdagi 24006 ta kichik korxona va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (21048 ta) 114,0 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning savdo (32,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (16,6 %), sanoat (16,0 %), qurilish (10,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,5 %) hamda tashish va saqlash (4,3 %) va axborot va aloqa (1,7 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi
(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2022 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi

Shahar va tumanlar bo‘yicha eng ko‘proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (800,9 mlrd. so‘m), Beruniy (486,9 mlrd. so‘m), Amudaryo (325,4 mlrd. so‘m), To‘rtko‘l (280,9 mlrd. so‘m), Ellikqal’a (253,8 mlrd. so‘m), Qoroq‘zak (238,9 mlrd. so‘m), Qo‘ng‘iroq (198,6 mlrd. so‘m); tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bo‘zatov tumanida (30,2 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.




2022 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o’sish sur’atlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Nukus shahri (2643,3 mlrd. so'm), To'rtko'l (1394,9 mlrd. so'm) va Beruniy (955,0 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida respublika yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 56,6 foizni tashkil qilib, 2021 yilning mos davriga (56,3) nisbatan foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Bo'zatov tumanlari (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Beruniy ulushi (95,0 %), Shumanay ulushi (86,2 %), tumanlariga va eng past ulushi Taxiatosh tumani (7,6 %) to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Taxtako'pir (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (84,4%), Mo'ynoq (81,5 %), Qorao'zak (81,4 %), Nukus tumani (81,1 %), Shumanay (79,8%), Kegeyli (79,3 %), Xo'jayli (79,2 %), Qonliko'l (76,6 %), Ellikqal'a (76,5 %), Bo'zatov (76,0 %), tumanlariga to'g'ri keldi.